

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti “Real iqtisodiyot” kafedrası, i.f.n v.b. dotsent, Islomov Shuhrat Marufjonovich taqrizi ostida

Qarshiyev Avazbek Sa'dullayevich,
Iqtisodiyot fakulteti talabasi,
Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti
avazqarshiyev@yahoo.com
ORCID ID: 0009-0007-4688-7558

IQTISODIY INQIROZLARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi raqamlashgan iqtisodiy tizimda yuzaga inqirozlarni aniqlash, tahlil etish va boshqarishga doir strategiyalarini ishlab qilishga qaratilgan. Global iqtisodiyotdagi shiddatli o'zgarishlar va har bir faoliyatni amalga oshirish kudan kunga mukammalashib borayotgan birvaqtda iqtisodiy inqirozlarning qanday hal etishni o'rganish har bir mamlakat uchun muhimdir. Tarixiy tajribalar va amaliy bilimlarga asoslangan holda, maqolada iqtisodiy inqirozlar davrida qo'llanilgan boshqaruv strategiyalari, ularning samaradorligi, va ularni optimallashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy inqirozlar, boshqarish strategiyalari, innovatsion texnologiyalar, pandemiya, global iqtisodiyot, inflyatsiya, eksport va import.

Kirish

Bugungi zamonaviy raqamlashgan iqtisodiyot, o'ziga xos alohida murakkab va dinamik tuzilmalardan tashkil topgan bo'lib, har qanday iqtisodiy inqirozning ta'sirini chuqurroq tadqiq etish muhim ekanligini anglatadi. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, ko'plab insonlar hayotiga tahdid slogan ayanchli iqtisodiy inqirozlar sodir bo'lgan, biroq ularning har biri o'ziga xos o'zgarishlarni omma hayotiga olib kelgan. Ko'pincha, biror inqirozning kutilmagan oqibatlari, shuningdek, ularni yengish uchun qo'llaniladigan strategiyalar qo'llanilgan vaqtda oxirgi natija yangi o'zgarish va ba'zi noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Masalan, ba'zi inqirozlar faqat bir mamlakat iqtisodiy hayotiga ta'sir qilsa, boshqalar butun dunyo bo'ylab o'z ta'sir doirasini hosil qilib keng ko'lamli o'zgarishlarga olib keladi. Ushbu olib borilgan tadqiqotda, turli iqtisodiy inqirozlar va ularni boshqarish strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlikni, hamda global darajada ushbu strategiyalarni qo'llash va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Umumiy olib qaralganda har bir global inqiroz yangi iqtisodiy tizim kirib kelganda va uning peak(eng baland) nuqtasiga yetganda sodir bo'ladigan holat hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy inqirozlar tarixda bir necha bor yuz bergan va har safar turli davlatlar va tashkilotlar tomonidan turli xil boshqaruv strategiyalari ishlab chiqilgan. Quyida shu mavzu yuzasidan izlanish olib brogan olimlarning fikrlari sharhida iqtisodiy inqirozlarni boshqarish strategiyalari haqidagi nazariy va amaliy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Mundell va Fleming (1963) tomonidan ishlab chiqilgan Mundell-Fleming modeli, iqtisodiy inqirozlar davrida monetar va fiskal siyosatning o'zaro bog'liqligini o'rganishda asosiy nazariy yondashuv hisoblanadi. Ushbu modelda davlatlar o'z milliy valyutalarining kursi va foiz stavkalarini boshqarish orqali inqirozlarni yengishga urinishlari mumkinligi ko'rsatiladi. Krugman (1979) esa valyuta inqirozlari bilan bog'liq asosiy nazariyalarni o'rganib chiqdi va spekulativ hujumlar natijasida valuta kurslarining keskin o'zgarishiga olib keluvchi holatlarni tahlil qildi.

1930-yillar Buyuk Depressiyasi davrida Qo'shma Shtatlar va boshqa davlatlar bir qator fiskal va monetar siyosat choralari qabul qilishdi. Keynes (1936)ning “The General Theory of Employment, Interest, and Money” asari bu borada muhim nazariy manba hisoblanadi, unda hukumatning iqtisodiy faollikni oshirish maqsadida

davlat xarajatlarini ko'paytirish zarurligi ta'kidlangan. 2008-yil global moliyaviy inqirozi paytida esa QE (Quantitative Easing) kabi noan'anaviy monetar siyosatlar keng qo'llanildi. Bernanke (2015) tomonidan taklif etilgan choralar, AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan qo'llanilgan amaliyotlar misolida ko'rib chiqildi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlar, iqtisodiy inqirozlar paytida davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish va texnik yordam berish orqali muhim rol o'ynaydi. Stiglitz (2002) bu tashkilotlarning rolini tanqidiy baholab, rivojlanayotgan davlatlar uchun ularning yordam dasturlari qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida yozgan. Ushbu adabiyotlarda xalqaro hamkorlikning samaradorligi va cheklovlari muhokama qilingan.

So'nggi yillarda iqtisodiy inqirozlarni boshqarishda barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni saqlashga qaratilgan yondashuvlar dolzarb bo'lib qoldi. Piketty (2014) iqtisodiy tengsizlik va uning inqirozlar bilan bog'liqligini o'rganib, barqaror iqtisodiy siyosatni yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Rajan (2010) tomonidan taklif etilgan iqtisodiy diversifikatsiya strategiyalari ham iqtisodiy inqirozlarning salbiy ta'sirlarini kamaytirishning muhim usuli sifatida e'tirof etiladi.

So'nggi yillarda texnologik rivojlanish bilan bir qatorda iqtisodiy inqirozlarni boshqarishda innovatsion yondashuvlar dolzarb bo'lib qoldi. Fintech (moliya texnologiyalari) va blokcheyn texnologiyalari inqiroz paytida iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta rol o'ynashi mumkin. Gomber va Koch (2017) moliyaviy texnologiyalarning moliyaviy inqirozlarga qarshi kurashda qanday imkoniyatlar yaratishi haqida so'z yuritishgan. Blokcheyn texnologiyalari, ayniqsa, bank tizimi va xalqaro to'lovlar tizimlarida xavfsizlikni ta'minlash va ishonchlikni oshirishda foydali ekanligini isbotlaydi.

Sanoat tarmoqlarini iqtisodiy inqirozdan himoya qilish strategiyalari ham muhim ahamiyatga ega. Porter (1990)ning raqobat strategiyalari va sanoat tarmoqlari rivojlanishiga oid ishlari inqiroz davrida korxonalar va tarmoqlar qanday qilib o'z raqobatbardoshligini saqlab qolishi mumkinligini tushinishda yordam beradi. Shuningdek, iqtisodiy inqiroz davrida kichik va o'rta bizneslarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan yondashuvlar ham ahamiyatli. Beck va Demirgüç-Kunt (2006) kichik bizneslar iqtisodiy inqirozlarni yengishda qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan.

COVID-19 pandemiyasi iqtisodiy inqirozlarni boshqarishda yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlar yaratdi. Bu inqiroz ko'plab davlatlarni qisqa vaqt ichida tezkor va moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishga majbur qildi. Baldwin va di Mauro (2020) pandemiya davrida iqtisodiy siyosatning samaradorligi, shuningdek, davlatlarning pandemiya inqiroziga qanday javob qaytarishi haqida batafsil ma'lumot bergan. Pandemiya davridagi global iqtisodiy inqirozlar bo'yicha o'rganishlar ko'rsatadiki, pandemiya inqirozini boshqarish uchun kompleks yondashuvlar zarur.

Iqtisodiy inqirozlarni boshqarish strategiyalari ishlab chiqish va real hayotga tadbiiq etish turli nazariyalar, amaliy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarga tayanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy inqirozlarni boshqarishda davlat siyosati, xalqaro hamkorlik, sanoat tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash, va innovatsion texnologiyalar qo'llash, yillik strategiyalar ishlab chiqish va tadqiq etish har mamlakat qolaversa butun dunyo uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, bunga misol qilib COVID-19 pandemiyasi sababli yuzaga kelgan ko'plab muammolarni keltirishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotni tayyorlash jarayonida ilmiy tadqiqotning tizimli yondashuv, monografik kuzatish, statistik abstrakt, mantiq fikrlash va istiqbolli prognozlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda tahlil va sintez usulidan samarali foydalanilgan.

Tadqiqot natijasi

Quyida ushbu tadqiqot uchun O'zbekistonning olti yillik statistik malumotlari olindi. 2018-2023 yillarda iqtisodiy inqirozning boshqarish strategiyalari doirasida asosiy O'zbekistondagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

| Yil | YaIM (%) | o'sishi | Inflyatsiya (%) | Ishsizlik darajasi (%) | Davlat qarzi (mlrd \$) | Ekspart hajmi (mlrd \$) | Import hajmi (mlrd \$) |
|------|-------------|---------|--------------------|------------------------------|------------------------------|-------------------------------|------------------------------|
| 2018 | 3.2 | | 7.5 | 9.8 | 64.3 | 45.6 | 55.2 |
| 2019 | 2.7 | | 7.8 | 10.3 | 67.1 | 46.9 | 57.8 |
| 2020 | 0.2 | | 8.3 | 12.1 | 71.5 | 43.7 | 54.6 |
| 2021 | 4.1 | | 6.9 | 9.4 | 75.0 | 48.3 | 60.1 |
| 2022 | 5.0 | | 6.5 | 8.7 | 78.2 | 51.6 | 63.4 |
| 2023 | 3.8 | | 6.2 | 9.1 | 80.5 | 50.2 | 62.7 |

Yuqoridagi besh yillik statistik ma'lumotlar keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, iqtisodiy inqiroz yillari davomida (2020 yilda ko'plab iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga kelgani yaqqol ko'rinadi) YaIMning o'sish sur'ati sezilarli pasaygan, 2020- yilda eng kam qiymatni tashkil qilgan. Bu davrda, inflyatsiya darajasi ortgan va ishsizlik ko'rsatkichi keskin oshgan. Shu bilan birga, davlat qarzi bosqichma-bosqich o'sib borishi kuzatilmoqda, bu esa davlatning inqirozga qarshi siyosati doirasida amalga oshirilgan moliyaviy chora-tadbirlarni kam foizda samara berayotganini aks ettiradi. Ekspart va import hajmlaridagi o'zaro tafovud esa global bozor va mamlakat valyuta kursi va inflatsiya darajasidagi tebranishlarning natijasi sifatida namoyon bo'lgan.

Boshqa yillarda, 2021-2023 yillarda, iqtisodiy inqirozdan keyingi tiklanish jarayonini yaqqol ko'rishimiz mumkin. YaIM pozitiv o'sish sur'atlari qayta tiklanib, inflyatsiya darajasi bir oz pasaygan, lekin davlat qarzi miqdori yuqori darajada saqlanib qolgani raqamlarda aks etilgan. Ekspart hajmining barqaror o'sishi va import hajmining tiklanishi, xalqaro savdo bo'yicha ko'rilgan choralar va ishlab chiqarilgan rejalar samarasini aks ettiradi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasi sekin-asta qisqargan bo'lsa-da, uning bu foizda bo'lishi rivojlanayotgan mamlakat uchun xavfli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar muokamasi

Yuqoridagi 2018-2023-yillarga oid statistik va makroiqtisodiy ma'lumotlar, mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy inqirozning turli soha va sektorlarga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqroq tushunishga yordam beradi. Dastlab, YaIM o'sish sur'atlariga e'tibor qaratsak, 2020 yilgi global pandemiya natijasida mamlakat iqtisodiyotining keskin tushishi oqibatida ishlab chiqarish, YaIM miqdori, ekspart va import hajmi foizlariga ham sezilarli tasir o'tkazganini ko'rishimiz mumkin.

Inflyatsiya darajasining o'sishi esa boshqa bir muammo. 2020 yilda inflyatsiya ko'rsatkichi 8.3% ga yetgani, narxlarning ko'tarilishi va iste'molchilarning xarid qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Shu o'rinda, inqiroz holatni tartibga solish uchun ishlab chiqilgan strategiyalarni ham aynan inflyatsiyani jilovlashga qaratilganligini ta'kidlash kerak. Davlat boshqa mamlakatlardan qarzining yildan-yilga ortib borishi, iqtisodiy krizis vujudga kelgan yillarda qabul qilingan moliyaviy say-harakatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u kelgusidagi moliyaviy holatga ham ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori. Ekspart va import hajmlaridagi o'zgarishlar esa, ularning inqiroz yuzaga kelgan yillarida qanday o'zgarib borishi bilan bog'liq. 2020 yilda ekspart hajmi 43.7 mlrd \$ ga pasaygan, bu global bozorlardagi savdo, oborotning pasayishiga sabab bo'lgan. Import hajmi ham bir necha foizga kamaygan, lekin 2021 yildan boshlab, iqtisodiy qayta tiklanish boshlangan vaqtda bu ko'rsatkichlar yana oshib borganini ko'ramiz.

Biroq, ishsizlar soni 2020-yilga kelib keskin oshishi, bu iqtisodiyotning turli sohalaridagi katta muammolarni keltirib chiqardi. Keyingi yillarda mamlakatda ishsizlik foiz ko'rsatkichi, inson resurslarini boshqarishda va yangi ish o'rinlari yaratishda qabul qilingan strategiyalarning qanchalik muvaffaqiyatli bo'lganini bildiradi. 2021-2023 yillarda ishsizlik darajasining oldingi yillarga nisbatan pasayishi esa, iqtisodiy inqiroz sababli samaradorlik tushib ketgan sohalarida ham o'sish va investitsiyalar bilan bog'liq yutuqlarni natijasida yuzaga kelgani kelib chiqadi, biroq, bu rivojlanish hali ham barqaror bo'lmaganini hisobga olish zarur.

Xulosa va takliflar

Umumiy xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki bir mamalakatda iqtisodiy inqirozlar vujudga kelganda ularni boshqarishda qo'llash uchun strategiyalarning xilma-xilligini saqlash va ularning samaradorligiga qarab yillik rivojlanish va krizis jarayonidan tiklanishga strategiya sifatida qo'llash mumkin ekan. Tarixda bo'lib o'tgan global inqirozlar, xususan COVID-19 pandemiyasi davrini o'tkazib shunday qarorga kelindiki, yuzaga kelgan inqirozlarni boshqarishda zamonaviy va o'zgarishlarga moslashuvchan yondashuv va yechimlarning zarurligini ta'kidladi. Strategiyalar ma'lum hududlar va davrlar sharoitlariga qarab o'zgarib boradi, va ularni ishlab chiqishda global va mahalliy kontekstlarni hisobga olish zarur. Umuman olganda inqirozlarni samarali yechim topish uchun iqtisodiy, texnologik, va xalqaro hamkorlik elementlari muhim ahamiyatga ega.

Tahlil asosida yuzaga kelgan takliflarga keladigan bo'lsak, yangi texnologiyalar, masalan, fintech va blokcheyn, sun'iy intellekt iqtisodiy inqirozlarni boshqarishda samarali qo'llanilishi mumkin. Shu bois, bu texnologiyalarni bir mamlakat hududiga olib kirish yoki dunyo bo'ylab yoyish, rivojlantirish va amalda foydalanish zarur. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash va inqirozlarga qarshi global tarzda birgalikda kurashish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish lozim. Sanoat tarmoqlarini inqirozdan himoya qilish va ularning raqobatbardoshligini saqlash uchun maxsus dasturlar yaratish kerak. Davlat qarzini nazorat qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun yangi moliyaviy siyosatlarini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mundell, R. A., & Fleming, J. M. (1963). International Economics.
2. Krugman, P. (1979). Currency Crises.
3. Keynes, J. M. (1936). The General Theory of Employment, Interest, and Money.
4. Bernanke, B. (2015). The Courage to Act: A Memoir of a Crisis and Its Aftermath.
5. Stiglitz, J. E. (2002). Globalization and Its Discontents.
6. Piketty, T. (2014). Capital in the Twenty-First Century.
7. Rajan, R. G. (2010). Fault Lines: How Hidden Fractures Still Threaten the World Economy.
8. Gomber, P., & Koch, J. (2017). Fintech and the Financial Markets.
9. Baldwin, R., & di Mauro, B. W. (2020). Mitigating the COVID Economic Crisis.
10. Beck, T., & Demirgüç-Kunt, A. (2006). Small and Medium Enterprises: Access to Finance as a Constraint
11. "Changing the Structure of the Economy and the Role of Holding Companies in Uzbekistan" INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY, Karshiev Avazbek Sa'dullaevich.
12. "Digitization and ensuring a sustainable future of agriculture through digital technology", "Tadqiqotlar" jahon ilmiy – metodik jurnali, Karshiev Avazbek Sadullaevich, Faculty of Economics , student of group IK-422 , Samarkand Institute of Economics and Service